

**2024 yilning I chorak yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
MA'LUMOT**

**ИНФОРМАЦИЯ
об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за I квартал 2024 года**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2024 yilning yanvar-mart oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **6,5** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar, kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **4,4** mln. dollar (67,8%);
2. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar) – **1,6** mln. dollar (24,5 %);
3. Xizmatlar – **0,5** mln. dollar (7,7%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'limgan, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2024 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-mart oylarida 140 ta (grafik bo'yicha 140 ta) loyiha bo'yicha 236,0 mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,3%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 151,9%ni tashkil etdi.

Xususan, yangi turdag'i maydalash tegirmoni, masofada boshqariladigan avtomatlasingirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari kabi mahsulot turlari ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2024 yilning yanvar-mart oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **1 441,1** mlrd. so‘mni va 2023 yilning mos davriga nisbatan 125,5% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2024-yilga mo’ljallangan “Yo'l xaritasi”ga asosan, import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko'satkichlari joriy yilninig yanvar-mart oylarida **27,9** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lган tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalida to'liq o'rGANISH orqali ma'lumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“Navoiy KMK” AJ tomonidan 2024-yil 14-15 mart kunlari Jizzax viloyatida o'tkazilgan yarmarkalarda ishtirok etdi. Ushbu hududiy yarmarkada mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha 122 mlrd. so'mlik shartnomalar tuzildi.

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo'yicha doimiy choralar ko'rilmoxda.